
TOSHLOQDA YOSHLAR BANDLIGIGA KO'MAKLASHISH MAQSADIDA MEHNAT YARMARKASI O'TKAZILDI

Toshloq tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi hamda tuman Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida o'tkazilgan "Mehnat yarmarkasi"da ish bilan band bo'lmagan fuqarolar, yoshlar, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolar, ahloq tuzatish ishlariga jalb etilgan va jazoni o'tab qaytgan fuqarolarga tumandagi bo'sh ish o'rinlari taklif qilindi.

O'tkazilgan "Mehnat yarmarkasi"da 23 ta tashkilot va korxonalar ishtirok etib, 330 dan ziyod bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdilar. Tadbirga 146 nafar band bo'lmagan aholi vakillari jalb etildi. Shu kunning o'zida 56 nafar fuqarolarga ishlash uchun yo'llanmalar berildi. Bundan tashqari 30 nafar yoshlar kasb-hunarga jalb etildi. 18 nafari 1-KXMga payvandchilik kasbini o'rganishga, 12 nafari Toshloq Xizmat ko'rsatish texnikumiga qandolatchilik yo'nalishiga o'qishga yuborildi.

2023-12-15 08:23:48